

PEDAGOGIK KASBIY MUHIM FAZILATLAR-TA'LIM SAMARADORLIGI OMILI

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchining ta'lim berish, shaxsni shakllantirish, insonparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantirish kabi vazifalarni bajarishdagi kasbiy mahorati; gumanitar fazilatlar va bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati; zarur kasbiy sifatlar; shaxsiy rivojlanishning ichki olami, axloqiy fazilatlar, emotsional barqarorlik, muloqot madaniyati; tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish; emotsiyalarni boshqarish, o'quvchilarning ehtiyojini his qilish; o'zini anglash, kuchli va zaif tomonlarini bilish hamda kamchiliklarni bartaraf etishga intilish; maqsadlilik va motivatsiya; jamiyatda faol, ta'sirchan va ibratli shaxs sifatida namoyon bo'lish; kasbiy rivojlanish, ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish; pedagogika, psixologiya va ta'lim metodikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'qish; metodik, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni oshirish; jamoa bilan ishlash, hamkorlik loyihalarini tayyorlash hamda ta'limda innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurati mazmunan talqin etiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, samaradorlik, omil, shart-sharoit, pedagog, kasb, mas'uliyat, zarurat, shaxs, shakllanish, sifat, xususiyat, faollik, bilim, ko'nikma, kompetensiya, tafakkur, izlanish, qobiliyat, rivojlanish, ijodkorlik, natija.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются профессиональные навыки педагога при выполнении таких задач, как воспитание, формирование личности, гуманизм, гражданская ответственность, развитие самостоятельного мышления и социальной активности; гуманитарные качества и умение применять знания на практике; необходимые профессиональные качества; внутренний мир личностного развития, нравственные качества, эмоциональная устойчивость, культура общения; развитие навыков критического и самостоятельного мышления; управление эмоциями, чувство потребности учащихся; самосознание, знание сильных и слабых сторон и стремление к преодолению недостатков; целеустремленность и мотивация; проявление в обществе активной, влиятельной и поучительной личности; профессиональное развитие, углубление научно-теоретических знаний; чтение научной литературы по педагогике, психологии и методике воспитания; методическое, социальное и социальное воспитание; и коммуникативная компетентность

Ключевые слова: образование, эффективность, фактор, условие, педагог, профессия, ответственность, необходимость, личность, формирование, качество, характеристика, активность, знания, умения, компетентность, мышление, поиск, способности, развитие, творчество, результат.

PEDAGOGICAL PROFESSIONAL IMPORTANT QUALITIES AS A FACTOR IN EDUCATIONAL EFFICIENCY

Annotation. In the article, the teacher's professional skills in carrying out tasks such as teaching, personality formation, humanitarian, civic responsibility, independent thinking and the development of social activity; the ability to put humanitarian qualities and knowledge into practice; necessary professional qualities; the inner world of personal development, moral qualities, emotional stability, culture of communication; the development of critical and

independent thinking skills; emotion management, the feeling of reading scientific literature on psychology and educational methodology; increasing methodological, social and communicative competencies; working with the team, preparing collaborative projects.

Keywords: education, efficiency, factor, conditions, educator, profession, responsibility, necessity, personality, formation, quality, trait, activity, knowledge, skills, competence, thinking, research, ability, development, creativity, result.

Zamonaviy jamiyatda o'qituvchilik kasbi faqat dars o'tish bilan cheklanmaydi, balki shaxsni shakllantirish, unda insonparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantirish kabi muhim vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Ta'lim sifati va samaradorligining bosh omili — o'qituvchining kasbiy mahorati, insonparvarlik fazilatlarini va bilimni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Pedagogik kasbiy sifatlar shunchaki bilim, malaka yoki amaliy ko'nikma emas, balki chuqur psixologik asosga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlar majmuasidir. Ularning to'laqonli shakllanishi uchun o'qituvchi muntazam ravishda psixologik tayyorgarligini mustahkamlab borishi, emotsional va shaxsiy o'sishga e'tibor qaratishi zarur. Chunki haqiqiy o'qituvchi — psixolog, yo'l ko'rsatuvchi, yetakchi va do'st bo'la oladigan shaxsdir.

Zamonaviy o'qituvchi doimo o'z ustida ishlaydigan, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga intiladigan inson bo'lishi lozim. Malaka oshirish kurslari, vebinarlar, seminarlar, ilmiy-uslubiy to'garaklarda ishtirok etish, yangi adabiyotlar bilan ishlash uning kasbiy o'sishiga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat mas'uliyatli va emotsional jihatdan "zich" jarayon bo'lib, yuqori darajadagi kasbiy va shaxsiy sifatlarni talab etadi. O'qituvchining samarali ishlashi, ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan konstruktiv munosabatlar qura olishi, murakkab vaziyatlarda ham to'g'ri yondashuv topishi bevosita uning psixologik tayyorgarligi va kasbiy sifatlariga bog'liq [1]. Shu bois pedagogik kasbiy sifatlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish mutaxassis tayyorlashdagi asosiy nazariy va amaliy vazifalardan biridir.

Pedagogik kasbiy sifatlar faqat ish ko'nikmalarigagina emas, balki shaxsning ma'naviy-ruhiy va psixologik xususiyatlariga ham chambarchas bog'liq. Ularning shakllanishi murakkab, biroq rejalashtirilgan va ongli jarayondir. Demak, o'qituvchi tayyorlashda bilim va metodika bilan birga shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik, empatiya va psixologik tayyorgarlikka ham alohida e'tibor berish lozim.

Asosiy qism

Bugun ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, yuksak gumanitar fazilatlarga ega, malakali va fidoyi o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki keng dunyoqarashli, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan, bolalar tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan ziyoli shaxsdir.

O'qituvchining asosiy fazilatlaridan biri — kasbiga sadoqatdir. Bolalar kelajagini shakllantiruvchi shaxs sifatida o'qituvchi o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi zarur [2]. Uning har bir so'zi va harakati o'quvchiga ta'sir qiladi, shu bois bu kasbni tanlagan inson vazifasini vijdonan bajarishi kerak. Kasbiy mas'uliyat faqat vazifani ado etish emas, balki uni "yurakdan" bajarishdir. O'qituvchi o'quvchi taqdiri uchun javobgardir. Uning har bir so'zi, xatti-harakati, munosabati ta'lim jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mas'uliyatli o'qituvchi o'quvchilariga nafaqat bilim, balki hayotiy qadriyatlarni ham singdira oladi.

O'qituvchi o'quvchilar uchun ibrat namunasidir. Shuning uchun unda adolat, samimiyat, kamtarlik, insonparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar mujassam bo'lishi kerak [3]. Bu sifatlar nafaqat o'quvchilar bilan, balki hamkasblar va ota-onalar bilan munosabatlarda ham muhim. Insonni taniydigan, uning ruhiy olamini his qiladigan, mehribon va bag'rikeng o'qituvchi bolalar qalbiga yo'l topa oladi.

Pedagogik etika — o'qituvchi faoliyatini belgilovchi tamoyillar majmui bo'lib, unda haqqoniylik, adolat, xulq-atvorda barqarorlik, so'z va amal uyg'unligi bo'lishi shart [4]. Zamonaviy o'qituvchi pedagogik texnologiyalarni bilishi, yangiliklardan xabardor bo'lib borishi,

o'z fanini chuqur egallashi lozim. Shu bilan birga, darsni qiziqarli, interaktiv shaklda olib bora olish ham muhim. Buning uchun o'qituvchi ijodkor va mahoratli bo'lishi kerak.

Pedagogik faoliyat katta emotsional va intellektual yuklamani talab qiladi. O'qituvchi turli murakkab vaziyatlarga duch keladi: o'quvchilar va ota-onalar bilan kelishmovchiliklar, attestatsiya, katta hajmdagi hujjatlar va hokazo. Shuning uchun o'qituvchi stressli vaziyatlarda o'zini boshqara olishi, xotirjam va oqilona tutishi zarur.

O'qituvchi jamoa bilan ishlashda, o'quvchilar va ota-onalar bilan muloqotda, turli tadbirlarni tashkil etishda tashabbuskor va yetakchi bo'lishi kerak. Samarali muloqot o'rnatish olish, notiqlik, tinglash madaniyati muhim hisoblanadi. Yuksak pedagogik mahoratga ega o'qituvchi [5]:

- fanini chuqur biladi;
- darslarni maqsadga yo'naltirib tashkil etadi;
- interaktiv, innovatsion va tanqidiy fikrlashga asoslangan metodlardan foydalanadi;
- dars jarayonida fikrini ravon bayon qilib, o'quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi.

Metodik bilimlar orqali o'qituvchi fanni nafaqat o'rgatadi, balki uni hayot bilan bog'lab, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi.

Muloqot pedagogik jarayonning asosiy omillaridan biridir. Samarali o'qituvchi:

- tinglay oladi;
- fikrini aniq va tushunarli ifodalaydi;
- turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qila oladi;
- sokin, ta'sirchan va hurmatli ohangda so'zlaydi.

Ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan to'g'ri aloqa o'rnatish hamda yaxshi munosabatlarni saqlash ham muhim jihatlardandir.

O'quvchilar bilan ishlash jarayonida turli vaziyatlar yuzaga keladi. Har bir bola individual yondashuvni talab qiladi. Shu bois o'qituvchida sabr-toqat, tushunish, bag'rikenglik, emotsional barqarorlik kabi sifatlarning bo'lishi nihoyatda muhim [6].

Ta'limdagi o'zgarishlarga moslashish, yangi g'oyalar ilgari surish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish o'qituvchining raqobatbardoshligini oshiradi. Ijodkor o'qituvchi har bir darsni yangicha tashkil etishga intilib, o'quvchilarning fanlarga qiziqishini kuchaytiradi [7]. Bu — mavjud bilimni uzatish bilangina cheklanmay, yangi g'oyalar yaratish va o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rag'batlantirish demakdir. Zamonaviy AKT vositalari va interaktiv platformalardan foydalanish o'qituvchini yanada raqobatbardosh qiladi.

Bugun o'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki tashkilotchi va yetakchi sifatida ham faoliyat yuritadi [8]. Turli madaniy, ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarini tashkil etish, o'quvchilarni loyihalarga jalb qilish, ijtimoiy faollikni rag'batlantirish ham uning vazifalariga kiradi. Bunday ishlarda o'qituvchi tashabbuskor bo'lib, o'z g'oyalari bilan oldinga intilishi zarur.

Natijalar va muhokamalar

O'qituvchi — o'quvchi shaxsini shakllantiradigan va uning kelajakdagi muvaffaqiyatiga poydevor yaratadigan muhim shaxsdir. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi nafaqat uning o'zi, balki ta'lim sifati va jamiyat taraqqiyoti uchun ham juda muhim. Pedagogikadagi har qanday innovatsiya, metodika yoki yangilik faqat rivojlanishga intiladigan o'qituvchi orqali hayotga tatbiq etiladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi, shaxsiy va kasbiy o'sishga intilishi zarur.

Shaxsiy rivojlanish — insonning ichki olami, axloqiy fazilatlarini, emotsional barqarorligi, muloqot madaniyati, tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. O'qituvchining shaxsiy rivojlanishidagi muhim jihatlari [9]:

- **emotsional intellekt:** o'z emotsiyalarini boshqarish, o'quvchilarning ehtiyojini his qilish;
- **o'zini anglash:** kuchli va zaif tomonlarini bilish, o'sishga intilish, kamchiliklarni yengish;
- **maqsadlilik va motivatsiya:** o'ziga aniq maqsadlar qo'yish va ularga erishishga intilish;
- **faol hayotiy pozitsiya:** jamiyatda faol, ta'sirchan va ibratli shaxs sifatida namoyon bo'lish.

Shaxsiy jihatdan rivojlangan o'qituvchi darsda erkin harakat qiladi, muammolarni ijobiy hal etadi va o'quvchilar qalbiga yo'l topadi.

Kasbiy rivojlanish — o'qituvchining malaka, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini yangilash hamda chuqurlashtirish jarayoni bo'lib, u tizimli va uzluksiz bo'lishi kerak. Kasbiy rivojlanish quyidagilarni o'z ichiga oladi [10]:

- **ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish:** pedagogika fanini chuqur o'rganish, yangiliklardan xabardor bo'lish; pedagogika, psixologiya, ta'lim metodikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'qish;

- **metodik kompetensiyani oshirish:** turli o'qitish metodlarini bilish; dars ishlanmalarini yangi yondashuv asosida tuzish; darsda AKTdan samarali foydalanish;

- **ijtimoiy va kommunikativ kompetensiya:** jamoa bilan ishlash, hamkorlik loyihalarini tayyorlash; ota-onalar bilan ochiq muloqot olib borish; ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etish;

- **ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash:** yangi platformalardan (Kundalik, Ziyonet, Google Classroom) foydalanish; onlayn darslar, vebinarlar tashkil etish; masofaviy ta'lim elementlarini o'zlashtirish.

O'qituvchilar shaxsiy va kasbiy o'sishda turli to'siqlarga duch kelishi mumkin:

- vaqt yetishmasligi;
- moliyaviy yoki texnik qiyinchiliklar;
- motivatsiya pastligi;
- infratuzilma muammolari.

Bularni yengish uchun:

- vaqtni to'g'ri boshqarish (time management)ni yo'lga qo'yish;
- bepul onlayn kurslardan (Coursera, Ziyonet, EdX va boshqalar) foydalanish;
- ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'limiy hamjamiyatlarga qo'shilish;
- xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish tavsiya etiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining mehnat samaradorligi uning kasbiy sifatlariga bevosita bog'liq. Bu sifatlar faqat bilim va ko'nikmalar bilan cheklanmay, o'qituvchining psixologik holati, shaxsiy xususiyatlari, empatik qobiliyatlari bilan ham belgilanadi. Chunki har bir dars va har bir suhbat nafaqat texnik bilim, balki ma'naviy ta'sir jarayonidir. Shu bois pedagogik kasbiy sifatning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish muvaffaqiyatli ta'lim jarayonining kalitidir.

O'qituvchi ega bo'lishi zarur bo'lgan asosiy kasbiy sifatlar:

- sabr-toqat;
- mehribonlik;
- adolat;
- badiiy va nutqiy qobiliyatlari;
- tashkiliy ko'nikmalar;
- insonparvarlik;
- ijodkorlik.

Bu kasbiy sifatlar o'qituvchining kundalik faoliyatida namoyon bo'ladigan psixologik qobiliyatlari bilan uyg'un ishlaydi.

O'qituvchilar bilan samarali ishlash uchun o'qituvchida yuqori empatik qobiliyat bo'lishi zarur. Empatiya — faqat mehribonlik emas, balki har bir o'qituvchining ehtiyojini tushunish, uni anglash va psixologik qo'llab-quvvatlay olish qobiliyatidir.

Shu bilan birga, o'qituvchining kommunikativ qobiliyatlari ham yuqori bo'lishi lozim. Bu qobiliyat quyidagilarni qamrab oladi:

- tinglash madaniyati,
- to'g'ri savol bera olish,
- javoblarda mantiq va aniqlik,
- noxush vaziyatlarda xotirjam qolish.

Pedagogik faoliyat doimo emotsional yuklamalarni talab qiladi: o'qituvchilarning muammolari, ota-onalar bilan muloqot, ish hajmining kattaligi, hujjatlar va boshqalar. Shu bois o'qituvchi:

- stressni boshqara olishi,

- o'zini to'g'ri "regulyatsiya" qilishi,
- muammolarga ijobiy yondashishi zarur.

Bu holat psixologik barqarorlik (chidamlilik) deb ataladi va pedagogik kasb uchun muhim ruhiy xususiyatdir.

Pedagogik tafakkur o'qituvchiga:

- ochiq fikrlash,
- mustaqil qaror qabul qilish,
- muammoga tanqidiy yondashish,
- ijodiy yechim topish imkonini beradi.

Bunday tafakkurning shakllanishi yuqori intellektual daraja, refleksivlik (o'z faoliyatini tahlil qila olish) va tajribadan to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatiga bog'liq.

O'qituvchining kasbiy rivojlanishida ichki motivatsiya — ya'ni o'zini o'zi rag'batlantira olish birlamchi ahamiyatga ega. Bu ko'pincha "shaxsiy missiya" tuyg'usi bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchining kasbiga sadoqati va ishtiyoqida namoyon bo'ladi.

Psixologiyada bu xususiyat o'qituvchining doimiy rivojlanish potensialini oshiradi, o'ziga tanqidiy qarash, kamchiliklarni tan olish va bartaraf etishga xizmat qiladi.

Pedagogik kasbiy sifatlar — o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan individual psixologik, axloqiy-ma'naviy va ijtimoiy-xulqiy xususiyatlardir. Bu sifatlar nazariy bilim va pedagogik metodlar bilan cheklanmay, shaxsning ichki olami, xarakteri, emotsiyalari va ijtimoiy qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

Pedagogik kasbiy sifatlar ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- **shaxsiy sifatlar** (mehribonlik, sabr, bag'rikenglik, mas'uliyat);
- **kasbiy sifatlar** (pedagogik mahorat, nutqiy qobiliyatlar, tashkiliy ko'nikmalar, innovatsion fikrlash).

Kasbiy sifatlar psixologik nuqtayi nazardan bir necha asosiy tizimlarga bog'liq holda shakllanadi:

- **temperament** — shaxsning tug'ma asosi. Masalan, sabr, talabchanlik yoki muloyimlik turli temperament turlarida turlicha namoyon bo'ladi. Har bir o'qituvchi o'z temperamentiga mos muloqot va o'qitish usullarini tanlay bilishi kerak.
- **emotsional intellekt** — o'qituvchining emotsiyalarni boshqarishi, o'quvchilarning ehtiyojini his qilishi va munosabatlarda ruhiy muvozanatni saqlashini ta'minlaydi.
- **empatik qobiliyatlar** — o'quvchilarning holatini tushunish, ularga ma'naviy yaqinlashish va ishonchli muhit yaratishga yordam beradi. **Ijtimoiy intellekt** esa jamoada, ota-onalar yoki hamkasblar bilan ijtimoiy munosabatlarni boshqarishni ta'minlaydi.

Psixologiyada shaxsiy rivojlanish ongli va ongsiz jarayonlar orqali amalga oshishi ta'kidlanadi. Xususan, pedagogik kasbiy sifatlar shakllanishida quyidagi omillar muhim:

- **tarbiya va tajriba:** oila, maktab va oliygohda olingan ta'sirlar;
- **o'zini anglash (refleksiya):** o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga intilishi;
- **motivatsiya:** kuchli ichki motivatsiyaga ega o'qituvchi o'z sifatlarini faol shakllantiradi.

O'qituvchi shaxsiy va kasbiy rivojlanishga intilar ekan, nafaqat o'zining intellektual va ma'naviy o'sishiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi. Rivojlanish — uzluksiz jarayon. U sabr, qat'iyat, intilish va mehrni talab etadi. Bugun "o'qitishdan oldin o'rganish" tamoyili har qachongidan ham muhim. Shuning uchun har bir o'qituvchi umr bo'yi o'qishdan to'xtamasligi, o'sishga intilishi lozim.

O'qituvchi nafaqat dars beruvchi, balki tarbiyachi, yetakchi va "hayot maktabi"ning bosh ustunidir. Unda mujassam bo'lishi zarur bo'lgan kasbiy sifatlar ta'lim samaradorligini ta'minlash bilan birga, kelajak avlodni komil inson sifatida shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Shu bois har bir pedagog o'z ustida ishlashi, salohiyatini doimiy oshirib borishi zarur.

Xulosa o'rni, o'qituvchilik kasbi — hayot tarzi, qalbdan tanlangan yo'l. Agar har bir o'qituvchi yuqoridagi kasbiy sifatlariga ega bo'lsa, u nafaqat yaxshi mutaxassis, balki o'quvchilarning mehribon do'sti, jamiyat uchun zarur inson bo'lib yetishadi. Bunday pedagog

ta'lim sifatini oshirishda, yosh avlodni yetuk va barkamol etib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Borko, H., & Putnam, R. T. (2016). "Learning to Teach." Handbook of Educational Psychology, P. 673-708.
2. Darling-Hammond, L. (2000). "Teacher Quality and Student Achievement: A Review of State Policy Evidence." Educational Policy Analysis Archives, 8(1). P. 24.
3. Day, C., & Gu, Q. (2014). "Resilient Teachers and Resilient Teaching." Teaching and Teacher Education, 43, 1. P. 13.
4. Leithwood, K., & Jantzi, D. (2005). "A Review of the Evidence on School Leadership." Educational Administration Quarterly, 41(5), P. 569-602.
5. Snyder, J., & Snyder, M. (2008). "The Influence of Teacher Quality on Student Achievement: A Review of the Literature." Educational Research Quarterly, 32(4), 20-32.
6. Rakhimov Z.T. The importance of developing students' academic competence in the process of modern higher education / Current research journal of pedagogics. Volume 05 Issue 04-2024. P. 43-50. <https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1623/1469>
7. Rakhimov Z.T. Development of educational and cognitive competence as an important condition of higher education / Journal of new century innovations. Volume-66_Issue-1_December-2024. P. 38-44. <https://scientific-jl.org/index.php/new/issue/view/126>
8. Rakhimov Z.T. Features of formation of students' technological competence / "PEDAGOGS" international research journal. ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-70, Issue-2, November -2024. P. 210-216. <https://scientific-jl.org/ped/issue/view/120>
9. Fullan, M. (2007). "The New Meaning of Educational Change." Teachers College Press. The Meaning of Educational Change. P. 18.
10. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). "The Power of Feedback." Review of Educational Research, 77(1), 81-112.